SIMULYATSION TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA INGLIZ TILINI O‘QITISH: TALABALARNING KASBIY MAHORATINI OSHIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVI

Yigitaliyeva N.F.
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Annotatsiya

Ushbu tezisda tibbiyot oliy ta’lim muassasalarining “Pediatriya ishi” yo‘nalishi talabalariga ingliz tilini o‘qitishda simulyatsion texnologiyalardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari va amaliy samaradorligi yoritilgan. Tadqiqot Farg‘ona, Andijon va Namangan tibbiyot institutlarining 348 nafar talabasi ishtirokida o‘tkazildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, simulyatsion metodlar (OSCE stansiyalari, standartlashtirilgan bemor, virtual reallik) asosida o‘qitilgan tajriba guruhi talabalarining kasbiy-kommunikativ o‘zlashtirish ko‘rsatkichi an’anaviy guruhga nisbatan 13,3% ga yuqori bo‘ldi. Xulosa o‘rnida ta’kidlanadiki, ingliz tilini simulyatsion texnologiyalar vositasida o‘qitish bo‘lajak shifokorlarning xalqaro tibbiy muhitga muvaffaqiyatli moslashishini ta’minlovchi eng maqbul innovatsion yondashuv hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: *tibbiy ta’lim, kasbiy ingliz tili, simulyatsion texnologiyalar, kommunikativ kompetensiya, standartlashtirilgan bemor, OSCE, pediatriya.*

KIRISH

Zamonaviy globallashuv jarayonlari tibbiyot sohasi mutaxassislaridan xorijiy tillarni, ayniqsa, ingliz tilini kasbiy va akademik darajada mukammal bilishni qat’iy talab etmoqda. Malakali mutaxassis bo‘lib yetishishda tibbiyot talabalari uchun chet tilida erkin muloqot qila olish zamonning asosiy mezoniga aylangan. Biroq, an’anaviy til o‘qitish metodikalari asosan grammatikani o‘zlashtirish va yodlashga asoslanganligi sababli, talabalarning real klinik muloqotga bo‘lgan ehtiyojlarini to‘laqonli qondira olmaydi. Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak shifokorlarning kasbiy-kommunikativ malakalarini xavfsiz va nazorat qilinadigan muhitda rivojlantirish imkonini beruvchi simulyatsion ta’lim texnologiyalari pedagogik jarayonning eng dolzarb va samarali vositalaridan biriga aylanmoqda.

TADQIQOT MAQSADI

Bo‘lajak shifokor-pediatrlarga ingliz tilini o‘qitish jarayonida simulyatsion texnologiyalardan foydalanish orqali ularning kasbiy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan didaktik tizimni takomillashtirish hamda uning amaliy samaradorligini ilmiy jihatdan asoslash.

MATERIAL VA METODLAR

Tadqiqot Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti, Andijon davlat tibbiyot instituti hamda Namangan Impuls Tibbiyot institutlarining “Pediatriya ishi” yo‘nalishida tahsil olayotgan 348 nafar talaba ishtirokida olib borildi. Xolislik tamoyilini ta’minlash maqsadida ishtirokchilar nazorat (172 nafar) va tajriba (176 nafar) guruhlariga taqsimlandi. Ilmiy izlanish davomida qiyosiy-mantiqiy tahlil, pedagogik kuzatuv, suhbat va test sinovlari, shuningdek, olingan natijalarni baholashda matematik-statistik metodlar (Styudent va Pirson mezonlari) qo‘llanildi. Amaliy mashg‘ulotlar obyektiv tizimlashtirilgan klinik imtihon (OSCE) stansiyalari,

“standartlashtirilgan bemor” texnologiyasi, VR (virtual borliq) dasturlari va maneken-simulyatorlar yordamida tashkil etildi.

TADQIQOT NATIJALARI

Tajriba guruhidagi ingliz tili mashg‘ulotlari sun’iy yaratilgan, ammo real klinik sharoitlarga maksimal darajada yaqinlashtirilgan interfaol simulyatsion ssenariylar va vaziyatli masalalar (case-study) bilan boyitildi. Talabalarning xorijiy tildagi kasbiy malakasi to‘rt komponentli maxsus mezonlar (gnoseologik-tahliliy, amaliy-simulyatsion, kommunikativ-deontologik va refleksiv-korreksion) tizimi asosida baholandi. Matematik-statistik tahlil natijalariga ko‘ra, simulyatsion metodlar asosida ta’lim olgan tajriba guruhi talabalarining o‘zlashtirish ko‘rsatkichi (72,3%) an’anaviy usulda o‘qitilgan nazorat guruhi (59,0%) natijalaridan 13,3 % ga yuqori ekanligi tasdiqlandi. Qolaversa, tajriba guruhida talabalarning ingliz tilida “standartlashtirilgan bemor” bilan muloqot qilish, stress holatlarida mustaqil klinik qarorlar qabul qilish va tibbiy terminologiyani amaliyotda to‘g‘ri qo‘llash salohiyati keskin oshgani kuzatildi.

XULOSA

Bo‘lajak shifokorlarga chet tilini o‘qitishda simulyatsion texnologiyalarni integratsiya qilish ularning kasbiy tayyorgarligi hamda amaliy-kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirishning eng samarali mexanizmi hisoblanadi. Ingliz tilini simulyatsion metodikalar yordamida o‘zlashtirish – talabalarni global tibbiy muhitga muvaffaqiyatli integratsiya qilish, bemorlar bilan ishonchli muloqot o‘rnatish va kelgusida nufuzli xorijiy klinikalardagi malaka oshirish dasturlariga tezkor moslashishlari uchun eng maqbul hamda innovatsion didaktik tizim ekanligi o‘z isbotini topdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sostmann, G. C. M., & de Leng, B. A. (2021). Integrating language and clinical skills in virtual patient simulations: An innovative approach in medical education. *Medical Teacher*, 43(2), 150–158.

2. Issenberg, S. B., McGaghie, W. C., Petrusa, E. R., Gordon, D. L., & Scalese, R. J. (2005). Features and uses of high-fidelity medical simulations that lead to effective learning: a BEME systematic review. *Medical Teacher*, 27(1), 10–28.

3. Yigitaliyeva, N., & Shaikh, A. (2026, February). USING SIMULATIONS IN FOREIGN LANGUAGE LEARNING: EFFECTIVENESS. In *International Conference on Business & Management* (Vol. 2, No. 1, pp. 198-200).

4. Kadirova, M., & Yigitalieva, N. (2024). MODERN INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING PEDAGOGY FOR MEDICAL STUDENTS. SAMBHRAM XABARNOMASI, 1(1), 437–440. Retrieved from https://jurnal.sambhram.uz/index.php/JOURNAL/article/view/92Kadirova , M., & Yigitalieva, N. (2024). MODERN INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING PEDAGOGY FOR MEDICAL STUDENTS. SAMBHRAM XABARNOMASI, 1(1), 437–440. https://jurnal.sambhram.uz/index.php/JOURNAL/article/view/92